

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Behzod Yuldashev Rossiya Fanlar akademiyasining xorijiy a'zosi etib saylandi

2022-yil 1-iyun kuni bo'lib o'tgan Rossiya Fanlar akademiyasining umumiy yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik B.S. Yuldashev nanotexnologiyalar va axborot texnologiyalari yo'nalishida Rossiya Fanlar akademiyasining xorijiy a'zosi etib saylandi (<https://scientificrussia.ru/>).

Akademik Behzod Sodiqovich Yuldashevni Rossiya Fanlar akademiyasining xorijiy a'ziligiga saylangani bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi jamoasi nomidan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog'lik, yangi ijodiy yutuqlar va faoliyatida muvaffaqiyatlar tilaymiz!

Ma'lumot uchun. AQSH, Xitoy, Belarus, Tojikiston, O'zbekiston, Polsha, Italiya, Ispaniya, Armaniston, Singapur, Mo'g'uliston, Avstraliya, Hindiston, Ozarbayjon, Abxaziya, Germaniya, Serbiya, Buyuk Britaniya, Qirg'iziston, Avstriya, Fransiya, Qozog'iston, Shveytsariya va Kanada kabi davlatlardan 48 nafar olim Rossiya Fanlar akademiyasining yangi xorijiy a'zolari bo'ldi.